



Sarvinoz MUSTAFAYEVA,
O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti katta o'qituvchisi
E-mail: Mustafaevas701@gmail.com

Texnologiya, menejment kommunikatsiya instituti dotsenti D.Bozarov taqrizi asosida

TIL MADANIYATI TUSHUNCHASINING FALSAFIY MOHIYATI VA EVOLYUTSIYASI

Annotatsiya

Mazkur maqolada til madaniyatining falsafiy mohiyati va tarixiy rivojlanishi ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. U inson tafakkuri, ijtimoiy ong va ma'naviy qadriyatlar bilan bog'liq murakkab hodisa sifatida talqin etiladi. Tilning ontologik, gnoseologik va akseologik jihatlarini hamda uning antik davrdan zamonaviy bosqichgacha bo'lgan taraqqiyoti yoritiladi. Shuningdek, globallashuv va raqamli kommunikatsiya sharoitidagi o'zgarishlar ko'rib chiqilib, til madaniyati shaxs va jamiyat ma'naviy yetukligining muhim mezonini sifatida asoslanadi.

Kalit so'zlar: Til madaniyati, falsafiy mohiyat, evolyutsiya, lingvistik burilish, ma'no, kommunikatsiya, ijtimoiy ong, akseologiya, ontologiya.

THE PHILOSOPHICAL ESSENCE AND EVOLUTION OF THE CONCEPT OF LANGUAGE CULTURE

Annotation

This article analyzes the philosophical essence and historical development of language culture from a socio-philosophical perspective. It interprets language culture as a complex phenomenon closely connected with human thinking, social consciousness, and the system of spiritual values. The ontological, epistemological, and axiological aspects of language are revealed, and its development from antiquity to the modern stage is examined. Furthermore, the transformational processes of language culture in the context of globalization and digital communication are analyzed. The author substantiates language culture as an important criterion of spiritual maturity of both the individual and society.

Key words: Language culture, philosophical essence, evolution, linguistic turn, meaning, communication, social consciousness, axiology, ontology.

ФИЛОСОФСКАЯ СУЩНОСТЬ И ЭВОЛЮЦИЯ ПОНЯТИЯ КУЛЬТУРЫ ЯЗЫКА

Аннотация

В данной статье философская сущность и историческое развитие культуры языка анализируются с социально-философской точки зрения. Культура языка интерпретируется как сложный феномен, тесно связанный с человеческим мышлением, общественным сознанием и системой духовных ценностей. Раскрываются онтологические, гносеологические и аксиологические аспекты языка, а также освещаются этапы его развития от античности до современного периода. Кроме того, анализируются трансформационные процессы культуры языка в условиях глобализации и цифровой коммуникации. Автор обосновывает культуру языка как важный критерий духовной зрелости личности и общества.

Ключевые слова: Культура языка, философская сущность, эволюция, лингвистический поворот, значение, коммуникация, общественное сознание, аксиология, онтология.

Kirish. Til madaniyati tushunchasining falsafiy mohiyati inson tafakkuri, ijtimoiy ong va madaniy taraqqiyotni anglashda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Til nafaqat aloqa vositasi, balki inson mavjudligining ontologik sharti, bilish jarayonining gnoseologik instrumenti va ijtimoiy borliqni shakllantiruvchi semiotik mexanizmdir. Shu bois til madaniyatini tahlil qilish uning falsafiy mohiyati va tarixiy rivojlanishini yoritishni talab etadi.

Antik davrdan boshlab til va tafakkur munosabati falsafaning markaziy masalalaridan biri bo'lib kelgan. O'rta asrlarda til ilohiy haqiqat vositachisi sifatida, yangi davrda bilish instrumenti sifatida talqin etilgan bo'lsa, zamonaviy falsafada u haqiqatni konstitutsiyalovchi omil sifatida baholanadi. Bu esa til madaniyatini ontologik va ijtimoiy konstruktiv kuch sifatida anglashga olib keladi.

Til madaniyatining evolyutsiyasi dastlab nutq me'yorlari bilan bog'langan bo'lsa, keyinchalik estetik, axloqiy va kommunikativ mezonlarni ham qamrab oldi. Strukturalizm va poststrukturalizm ta'sirida u ijtimoiy diskurs, qadriyatlar va identitet bilan bog'liq kompleks fenomen sifatida talqin qilina boshlandi.

Globallashuv va raqamli kommunikatsiya sharoitida esa til madaniyati pragmatik samaradorlik, etik mas'uliyat va semantik aniqlik mezonlari bilan boyimoqda. Demak, uning falsafiy mohiyati tilning inson borlig'i va ijtimoiy haqiqatni shakllantirishdagi rolini anglashdan iborat bo'lib, ma'naviy tarbiya jarayonida tilning ijtimoiy, gnoseologik va aksiologik o'lchamlarini uyg'un holda ko'rib chiqishni taqozo etadi.

Til insonning ma'naviy mavjudligi va ijtimoiy ongini shakllantiruvchi asosiy mexanizm bo'lib, u nafaqat voqelikni ifodalaydi, balki uni yaratish va o'zgartirish quvvatiga ham ega. D.E. Kadirov tilni ijtimoiy o'zgarishlarning faol omili sifatida talqin qilib, siyosiy nutqning performativ xususiyatini ta'kidlaydi. Bu esa til madaniyatining shaxsning axloqiy mas'uliyati va ma'naviy muhit bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Zamonaviy ijtimoiy-falsafiy yondashuvlarda til madaniyati inson ongining strukturasi, qadriyatlar tizimi va ijtimoiy identifikatsiya jarayonlari bilan bog'liq holda talqin etiladi. R.X. Xudayberganov tilni tafakkurning mavjudlik shakli va ma'no ishlab chiqarish maydoni sifatida asoslab, kommunikativ

muvozanat buzilganda ma'naviy dezorientatsiya yuzaga kelishini qayd etadi.

N.B. Azizova tilni milliy identlik va ma'naviy birlik omili sifatida baholab, uning akseologik ahamiyatini ochib beradi. F.B. Bahodirova esa pragmatik yondashuv asosida tilni innovatsion tafakkur va inson kapitali rivojining muhim vositasi sifatida talqin qiladi. S.A. Choriyev til madaniyati zaiflashgan jamiyatda qadriyatlar tizimi va kommunikativ mas'uliyat susayishini ta'kidlaydi.

Mazkur qarashlar til madaniyatining ma'naviy tarbiyadagi markaziy o'rini, uning axloqiy, ijtimoiy va innovatsion funksiyalarini kompleks fenomen sifatida namoyon etadi.

Zamonaviy tadqiqotlar til madaniyatining ma'naviy tarbiyadagi ko'p qirrali funksiyalarini ko'rsatadi: kognitiv (tafakkurni shakllantirish), akseologik (qadriyatlarni uzatish), identifikatsion (milliy o'zlikni mustahkamlash), kommunikativ (ma'naviy tajribani avlodlarga yetkazish) va innovatsion (ijodkorlikni rag'batlantirish). Axborot makonida so'zning qadrsizlanishi yoki agressiv nutq shakllarining kuchayishi esa ma'naviy muhitga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois til madaniyatini rivojlantirish jamiyat taraqqiyotining strategik shartidir.

Tilning gnoseologik jihati tafakkur va nutq uyg'unligida namoyon bo'ladi. A.A. Menshikova epistemologik an'analarning til ontologiyasiga ta'sirini ko'rsatib, tilni bilish jarayoni bilan uzviy bog'liq fenomen sifatida talqin etadi. Shu bilan birga, ma'naviy tarbiya nuqtai nazaridan tilning mantiqiy aniqligi bilan birga axloqiy va estetik uyg'unligi ham muhimdir.

Zamonaviy bosqichda til madaniyati vizual-semiotik shakllarda ham rivojlanmoqda. O.A. Proxoyev vizual belgilar madaniy muhitni shakllantirishini ta'kidlasa, A.V. Makulin vizuallashtirish jarayonining yangi bilimlarni ochishdagi ahamiyatini qayd etadi. Biroq axborotning tezkorligi mazmun chuqurligini yo'qotmasligi lozim, chunki bu ma'naviy tarbiyaning asosiy shartidir.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot ijtimoiy-falsafiy yondashuv asosida amalga oshirildi. Ish jarayonida til madaniyati tushunchasining falsafiy mohiyati va evolyutsiyasini ochib berish maqsadida kompleks metodologik tamoyillardan foydalanildi.

Avvalo, tarixiylik va mantiqiylik birligi prinsipi asosida til madaniyatining shakllanish bosqichlari qadimiy davrdan zamonaviy davrgacha izchil tahlil qilindi. Bu usul tushunchaning evolyutsion rivojlanishini aniqlash imkonini berdi.

Shuningdek, ontologik va gnoseologik yondashuv asosida tilning borliq va tafakkur bilan bog'liqligi o'rganildi. Tilning ijtimoiy ongni shakllantiruvchi mexanizm sifatidagi roli falsafiy tahlil vositasida yoritildi.

Tadqiqotda aksiologik tahlil metodi ham qo'llanilib, til madaniyatining qadriyatlarni saqlash, uzatish va shakllantirishdagi funksiyalari ochib berildi. Bu yondashuv tilni ma'naviy tarbiyaning markaziy omili sifatida asoslash imkonini berdi.

Bundan tashqari, komparativ (qiyosiy) tahlil usuli yordamida turli falsafiy maktablar va olimlarning qarashlari o'zaro taqqoslandi. Strukturaviy-funksional yondashuv asosida til madaniyatining me'yoriy, kommunikativ, etik va estetik komponentlari tizimli ravishda o'rganildi.

Natijada tadqiqot metodologiyasi til madaniyatini ko'p qatlamli, ontologik, gnoseologik va aksiologik jihatlarining birligida namoyon bo'luvchi kompleks ijtimoiy-falsafiy fenomen sifatida tahlil qilish imkonini berdi.

Falsafiy an'anada til ontologik va aksiologik mohiyat kasb etadi. M. Xaydegger tilni "borliqning uyi" deb atab, uni inson mavjudligining shakli sifatida talqin qiladi, Gadamer esa tilni tajriba va tafakkur uchrashuv maydoni deb baholaydi.

Sharq mutafakkirlari ham tilning ma'naviy ahamiyatini alohida ta'kidlagan: Abu Nasr Forobiy nutqni aql ko'zgusi desa, Alisher Navoiy tilni millat ruhi sifatida ulug'laydi, Abdulla Avloniy esa tilni millat ko'zgusi deb ataydi.

Demak, til madaniyati ontologik, gnoseologik va aksiologik jihatlarining birligida namoyon bo'lib, shaxsning axloqiy yetukligi, tafakkur aniqligi va estetik sezgirlikni shakllantiruvchi muhim ma'naviy mezon hisoblanadi.

Til madaniyati va ma'naviyatning uzviy birligi masalasini Wilhelm von Humboldt ham falsafiy asosda tahlil etgan. Uning fikricha, "til — bu millat ruhi"[1]. Har bir xalq o'z tilida o'z ruhini, tarixini, ma'naviy tajribasini saqlaydi. Shu bois til madaniyati insoniyat madaniyatining shakllanishida ijtimoiy ong va ruhiyat o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlaydi. Til madaniyati millatning o'zligini anglash, qadriyatlarini tiklash, axloqiy birlikni mustahkamlash jarayonida ma'naviy mezon sifatida xizmat qiladi.

Til madaniyatining evolyutsiyasi inson tafakkuri tarixining bosqichlari bilan uzviy bog'liqdir. Qadim falsafa davrida til borliqni ifodalovchi vosita sifatida talqin etilgan bo'lsa, Uyg'onish davrida u inson tafakkuri va madaniyatining markaziga aylangan. Yangi davr falsafasida til ijtimoiy ongni shakllantiruvchi tizim sifatida o'rganilgan, zamonaviy postmodern yondashuvlarda esa u inson ma'naviy tajribasini yaratish va qayta ishlab chiqishning asosiy mexanizmi sifatida baholanadi. Shu tariqa, til madaniyati inson tafakkurining evolyutsion rivojlanishi natijasida shakllangan murakkab ijtimoiy-falsafiy hodisadir.

Til madaniyati ma'naviy tarbiyaning markaziy elementi sifatida insonning ruhiy olamini shakllantiradi. U shaxsni mantiqiy izchillikda fikrlashga, estetik ifodaga va axloqiy mas'uliyatga o'rgatadi. Shu ma'noda, til madaniyati tafakkurning axloqiy intizomi va ruhiy uyg'unligini ta'minlovchi tizimdir. Ta'kidlanganidek, til va ma'naviyat millatning tayanchi bo'lib, uni asrash va rivojlantirish kelajak avlod tarbiyasining muhim yo'nalishidir [3]. Til orqali inson o'zini, jamiyatni va tarixni anglaydi hamda ma'naviy komillikka intiladi.

Tahlil va natijalar. Ilmiy nuqtai nazardan til madaniyati shaxs va jamiyatning til vositalaridan ongli, maqsadga muvofiq, axloqiy-me'yoriy va estetik talablarga mos ravishda foydalanish qobiliyatini ifodalaydi. U faqat grammatik to'g'rilik bilan cheklanmay, balki lingvistik me'yoriylik, kommunikativ maqsadlilik, akseologik yo'nalganlik, etik mas'uliyat va estetik uyg'unlik kabi o'zaro bog'liq komponentlarni qamrab oladi.

Birinchidan, me'yoriylik nutqning aniqligi va tushunarligini ta'minlaydi. Ikkinchidan, kommunikativ maqsadlilik nutqning vaziyat va auditoriyaga mosligini belgilaydi. Uchinchidan, akseologik yo'nalganlik tilni qadriyatlarni saqlash va uzatish vositasi sifatida namoyon etadi. To'rtinchidan, etik omil hurmat va bag'rikenglikka asoslangan muloqotni ta'minlaydi. Beshinchidan, estetik mezon nutqning ravonligi va ifoda go'zalligini belgilaydi. Demak, til madaniyati ontologik, gnoseologik va aksiologik jihatlarining uyg'unligida namoyon bo'lib, jamiyat ma'naviy taraqqiyotining muhim mezon sifatida e'tirof etiladi.

Falsafiy jihatdan qaralganda, til madaniyati ontologik va gnoseologik asosga ega. Ontologik jihatdan u inson mavjudligining ijtimoiy shaklini ifodalaydi, chunki inson o'zini til orqali namoyon etadi. Gnoseologik jihatdan esa til bilish vositasi bo'lib, haqiqatni idrok etish va ifodalash imkonini beradi. Til madaniyati rivojlangan jamiyatda tafakkur aniqligi va mantiqiylik kuchli bo'ladi, ma'naviy dezorientatsiya kamayadi. Shu bois til madaniyati ma'naviy tarbiyaning markaziy elementi hisoblanadi. Chunki ma'naviy tarbiya avvalo nutqdan boshlanadi: so'z orqali inson ongiga g'oya singdiriladi, qadriyatlar shakllanadi va ijtimoiy mas'uliyat hissi paydo bo'ladi. Til madaniyati yuqori bo'lgan

jamiyatda ijtimoiy barqarorlik, o'zaro hurmat va konstruktiv muloqot ustuvor bo'ladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, til madaniyati – bu shaxs va jamiyatning ma'naviy yetukligini

ifodalovchi integral ko'rsatkich bo'lib, u tafakkur, axloq, qadriyat va kommunikatsiya uyg'unligida namoyon bo'ladi. Uni rivojlantirish – jamiyat ma'naviy taraqqiyotining strategik shartidir.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – B. 271–272.
2. Кадыров Д.Э. Язык как отражение социальных изменений: теоретико-методологический подход Кембриджской школы истории мысли: дис. ... канд. филос. наук. – М., 2022. – 209 с. (97–100-б.)
3. Xudayberganov R.X. Til va kommunikatsiya mutanosibligining falsafiy-metodologik jihatlar. – Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2021. – 12 b.
4. Xudayberganov R.X. Til va kommunikatsiya mutanosibligining falsafiy-metodologik jihatlar. – Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2021. – 18-19 b.
5. Azizova N.B. Davlat tili maqomi o'zbek tili funksional rivojlanishining omili sifatida (ijtimoiy-falsafiy jihatlar). – Samarqand: SamDU nashri, 2020. – 9 b.
6. Azizova N.B. Davlat tili maqomi o'zbek tili funksional rivojlanishining omili sifatida (ijtimoiy-falsafiy jihatlar). – Samarqand: SamDU nashri, 2020. – 21-22 betlar.
7. Bahodirova F.B. Pragmatizm falsafasi va uning jamiyat innovatsion rivojlanishiga ta'siri. – Buxoro: BuxDU nashri, 2021. – 8 b.
8. Bahodirova F.B. Pragmatizm falsafasi va uning jamiyat innovatsion rivojlanishiga ta'siri. – Buxoro: BuxDU nashri, 2021. – 26-27 betlar.
9. Choriyev S.A. Ma'naviy madaniyat va ijtimoiy taraqqiyot muammolari. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2018. – 74 b.
10. Choriyev S.A. Ma'naviy madaniyat va ijtimoiy taraqqiyot muammolari. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2018. – 81 b.
11. Меньшикова А.А. Проблемы эпистемологии аналитической философии языка с позиции индетерминизма: автореф. дис. ... канд. филос. наук. – Томск, 2021. – 18 с. (3–4-б.)
12. Прохожев О.А. Семиотические принципы формирования средств визуальной коммуникации: автореф. дис. ... канд. филос. наук. – Н. Новгород, 2018. – 27 с. (10–12-б.)
13. Макулин А.В. Социальная визиософия: инфографика, визуализация и графический язык социально-философского познания: автореф. дис. ... д-ра филос. наук. – Архангельск, 2019. – 54 с. (4–5-б.)
14. Гадамер Г.-Г. Актуальность прекрасного. – Москва: Искусство, 1991. – С. 25.
15. Хайдеггер М. Язык. – Санкт-Петербург: Ленинградский союз ученых, 1991. – С. 192.
16. Гадамер Г.-Г. Актуальность прекрасного. – Москва: Искусство, 1991. – С. 25.
17. Фаробий Абу Наср. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. – B. 29–30.
18. Navoiy A. Muhokamat ul-lug'atayn. – Toshkent: Fan, 1991. – B. 12–13.
19. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: Ma'naviyat, 1992. – B. 14.
20. Гумбольдт В. Язык и философия культуры. – Москва: Прогресс, 1985. – С. 53.